

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE INFLUENCE OF TALENT ON THE COMMUNICATION STYLE OF A PERSON

Abdullayeva Zuhro Ismoilovna  
Termez state university Teacher of Termiz State University

*Annotation. In this article, the role of talent in the development of a person's communication style and communication culture is the most necessary factor for a person. The main reason why a person is called a product of social relations is that he is always in a circle of people, within the framework of interaction with them. This indicates that one of the most leading and influential human activities is communication. An important task of teachers and psychologists is to identify gifted children in a timely manner and direct their talents to a specific area.*

*Key words: Personality, communication, talent, talent, perception, memory, thinking, abilities, natural, special abilities*

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ТАЛАНТА НА СТИЛЬ ОБЩЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА

Преподаватель Термезского государственного Университета  
Абдуллаева Зухро Исмаиловна

*Аннотация. В данной статье роль таланта в развитии стиля общения человека и культуры общения является наиболее необходимым фактором для человека. Основная причина, по которой человека называют продуктом социальных отношений, заключается в том, что он всегда находится в круг людей, в рамках взаимодействия с ними. Это указывает на то, что одним из наиболее ведущих и влиятельных видов деятельности человека является общение. Важной задачей педагогов и психологов является вовремя выявить одарённых детей и направить их таланты в конкретную область.*

*Ключевые слова: Личность, общение, талант, талант, восприятие, память, мышление, способности, природные, специальные способности*

## IQTIDORNING SHAXS MULOQOT STILIGA TA'SIRINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Zuhro Ismoilovna  
TerDU psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

*Аннотация. Ushbu maqolada shaxsning muloqot stilini rivojlantirishda iqtidorning roli va Muloqot madaniyati inson uchun eng kerakli omildir. Shaxs—ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi. Iqtidorli bolalarni o'z vaqtida aniqlash, ularning iqtidorlarini ma'lum bir sohaga yo'naltirish o'qituvchilar, psixologlar oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.*

*Kalit so'zlar: Shaxs, muloqot, iqtidor, iste'dod, idrok, xotira, tafakkur, qobiliyat, tabiiy, maxsus qobiliyatlar.*

**Kirish:** Mamlakatimizda ta'limga oid xujjatlarda shaxsning erkinligi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, iqtidorini yuksaltirish, muomala madaniyatini tarkib toptirishga birlamchi e'tibor qaratilgan. Shunday ekan, o'smir va o'spirin yoshdagi iqtidorli bolalarni muloqot jarayonida mustaqil fikrini erkin ifodalash malakalarini va ularning tanqidiy fikrlashini shuningdek, tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirish psixolog-pedagoglar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Iqtidorli bolalar muloqotida ko'pincha muloqot madaniyati amalga oshiriladi, ya'ni bir-birlarini hurmat qilish, ishonish, anglash kabilar. Ammo ba'zi paytlarda muloqot buzilishi ham mumkin. Chunki ular ayrim paytlarda bir-birlarini tushunmasdan xafa qilib qo'yishlari, ko'ngilga og'ir botadigan gaplar aytib yuborishlari, natijada nizolarni keltirib chiqarishlari mumkin. Agar muloqot madaniyati kishilarda yaxshi shakllangan bo'lsa, ular bir-birlarini tushunishlari oson ro'y beradi. Iqtidorli bolalarning muloqot madaniyati yoshlikdan oilada, ijtimoiy muhit ta'sirida, o'z-o'zini anglash, tarbiyalash oqibatida shakllanishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Psixologik tadqiqotlarda iqtidorlilik muammosi bir nechta yo'nalishlarda talqin etiladi: Rus olimlari L.S. Vygotskiy, L.S. Rubinshteyn, B.M. Teplov, B.F. Lomov, A.B. Brushlinskiy, N.S. Leytes, M. Xolodnaya, V.S. Merlin, Ye.A. Klimov, N.I. Chuprikova, chet el psixologiyasida iqtidorlilik A. Bine, J. Piage, Ch. Spirmen, Tyorstoun, Gilford, G. Ayzenk, R.B. Kettell, R. Sternberglar tadqiq etilgan. Shuningdek, mahalliy olimlar M.G. Davletshin, B.R. Qodirov, E.G. G'oziyev, V.M. Karimova, G'.B. Shoumarov, E.Z. Usmonova, R.I. Sunnatova, Z.T. Nishonovlarning izlanishlari hamda mutafakkirlarimiz Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Abdulla Avloniy va boshqalarning fikrlarida iqtidorlilikni tashkil etuvchi omillar turlicha talqin etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Psixologiyada Iqtidorning shaxs muloqot stiliga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlash uchun «Shaxsning muloqotga kirishuvchanligi» (V. Karimova), «Muloqotdoshlikni aniqlash» (M. Maxsudova) metodikalari natijalari taxlil qilindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Muloqot shaxsning individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri bo'lib, u insondagi kuchli ehtiyojlardan biri — inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlab, nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

Har qanday faoliyat odamlarning bir-birlari bilan til topishishini bir-birlariga turli xil ma'lumotlar uzatishini, fikrlar

almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rnini, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirish qobiliyati bilan bevosita bog'liq.

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zlashtirish va o'z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkuri, olami va o'zining obrazini taxlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxs xayoti davomida shaxsiy tajriba, ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni ortirib borishi jarayonida xosil bo'ladigan, bevosita shakllanadigan ijtimoiy bilimdonlik yoki kommunikativ savodxonlikdan farqli psixologiya fanida ushbu jarayonlarni maqsadli shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Shaxsning ijtimoiy taraqqiyoti uning normal rivojlanishi, ijtimoiylashishini, shaxs bo'lib shakllanishi jarayoni, uning jamiyat bilan bo'lgan aloqasi muloqotsiz amalga oshmaydi. Muloqot shaxsning o'ziga xos ijtimoiy ehtiyoji hisoblanadi. Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish o'quvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Yoshlarni nafaqat jismonan baquvvat, balki ma'naviy boy, yangi davr talabiga javob beradigan, muloqot jarayonida erkin fikr yuritadigan qilib tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb muammolaridandir. Shaxs rivojlanishida muloqotning roli to'g'risida psixologlar A.A.Lyublinskaya, D.B.Elkoninlar bolada o'yin faoliyati orqali muloqotning shakllanishini ta'kidlaydilar. Muloqot orqali shaxsning harakteri, irodaviy sifatleri shakllanishi haqida P.Y.Galperin, N.F.Dobro'nin, N.F.Talizinlar o'zlarining tadqiqotlarini o'tkazganlar.

Shuningdek, Respublikamiz psixologlaridan M.G.Davletshin, E.G'oziyev,

N.P.Anikeyeva, N.Safoyev kabilar muloqot muammosini turli tomondan yoritib berganlar. Jumladan, professor E.G'oziyev "Muomala psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida muloqotning barcha qirralarini nazariy tomondan ochib berishga harakat qilgan. Professor M.G.Davletshin ham "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida muloqotni kishilarda qanday shakllanishi haqida fikrlar bildirgan. Ta'lim - bu avvalo axborot jarayonidir. Muloqotga xilma xil ta'riflar berilgan bo'lib, psixolog V.M.Karimovning Ijtimoiy psixologiya darsligida unga quyidagicha ta'rif bergan: Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Muloqot - bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji bo'lib, munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, ma'lumot hamda axborot almashishga doir ularning birgalikdagi faoliyatidir. Rus psixologlaridan A.N.Leontiyev o'zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli - avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: "Agar barcha katta avlod o'lib ketganda, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi". Darhaqiqat, avlodlararo muloqot tufayli har bir alohida jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatleri mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avlodlar-avlodga uzatadilar. O'quvchilarni muloqotga o'rgatish uchun ularga psixologik, pedagogik adabiyotlarni o'qishga tavsiya qilish, muloqot jarayonida yoshlar faoliyatini kuzatish, fikrlashini aniqlash va shu jarayonda psixologik o'yinlar, mashqlar, treninglardan foydalanish muhimdir.

Muloqotga kirishuvchilarning o'zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan muloqotdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg'ular va afzallikning o'zaro taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual-tanlash tizimi sifatidagi do'stlik kishilar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi.

Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi. Kishining yuksak ma'naviy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Agar kishining muloqotga bo'lgan ehtiyoji qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Masalan, biz kichik yoshdagi o'quvchiarga kattalarga nisbatan qo'llaydigan so'zlarni ishlatmaymiz. Har bir yosh

davriga kiradigan kishilarga o'ziga xos so'zlar qo'llaniladi. Bunda so'zning ta'sir

kuchi hisobga olinadi. Shaxsni temperament xususiyatlariga qarab muloqot usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. O'qituvchi o'quvchiga bilimlarni ma'lum qiladi va o'z navbatida teskari aloqa tarzida undan ma'lum qilingan bilimlar qanday o'zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi. O'zaro birgalikdagi harakat mohiyatlar darajasida amalga oshiriladi. O'quvchilar muloqotining shakllanishida maqsad to'g'ri qo'yilishi lozim. O'quvchilarda muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi.

-Muomala madaniyatining nazariy asoslarini;

-Shaxslararo munosabatlar qonuniyatlarini;

-Pedagogik muloqotning qonuniyatlarini;

-Guruh va jamoalarda muloqotga qo'yiladigan asosiy talablar haqida tasavvurga ega bo'lishi;

-Muomala madaniyatini barcha guruh va jamoalarda shakllantirish;-Guruhlarda muloqotni shakllantirish metodikalarini o'tkazish;

-Muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida psixologik maslahatlar tashkil

teish yuzasidan ko'nikmalar hosil qilish;

Shuning uchun muloqot ijtimoiy psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtiroq etib,

hamqorlik faoliyatining moddiy,

ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib. shaxslararo munosabat, barkamol avlod, komil inson g'oyalarini anglatadi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi o'quvchining ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, harakter hislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi insonning fazilatlarini, sifatlarini namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg'ulari, ko'nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta'sir o'tkazish uslubi tarkib topishi mumkin. Muloqot madaniyati yoshlikdan oilada, ijtimoiy muhit ta'sirida, o'z-o'zini anglash, tarbiyalash oqibatida shakllanishi mumkin. Biz kattalar yoshlarga namuna, ibrat bo'lishimiz bir-birimizga bo'lgan muloqotimizdan kelib chiqadi.

Muloqot psixologiyasining asosiy maqsadi, avvalo yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishdir. Shuningdek, o'qitish jarayonida bo'lajak mutaxassislariga muloqot madaniyati, muomala odobini singdirish, guruh va jamoalarda o'zaro munosabatlarni muloqotni shakllantirish orqali yaxshilashdir.

Muloqot psixologiyasining asosiy vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- 1) hamkorlikdagi faoliyat jarayonida shaxslararo o'zaro ta'sir va muloqot qonuniyatlarini o'rganish;
- 2) Sharq allomalarining muloqot haqidagi qarashlarini tahlil qilish;
- 3) o'quvchini faollikka undovchi muomalaviy imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlab o'tish;
- 4) o'quvchilarda kasbiy layoqatni faollashtirishga qaratilgan muloqotni shakllantirish;
- 5) shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda muloqotning rolini orttirish;
- 6) o'zaro ta'sir etishning ayrim oqibatlarini hisobga olish.

Iqtidorli bola – bu tengdoshlariga qaraganda aqliy qobiliyati ko'proq, aqlan, ruhan, jismonan boshqa bolalar bilan solishtirganda ustuvorlik qiluvchi xususiyatlarga ega shaxs. Iqtidorli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, quyidagi ularni birma-bir keltiramiz:

- Yoshligidanoq erta gapira boshlaydi, lug'at boyligi erta shakllanadi;
- ma'lumotlarni tezda eslab qoladi va ularni saralash mahoratiga ega bo'ladi;
- mavjud bilimlardan foydalanish texnikasiga ega bo'ladi;
- atrof-muhitga qiziquvchanlik bilan qaraydi;
- mavzularni oson o'zlashtiradi;
- tasavvur qilish qobiliyati kuchli va hokazo

Iqtidorli bolalardagi kommunikativ qobiliyatni ruhiy jihatdan to'g'ri yo'naltirish uchun bir qator uslublar mavjud, xususan:

- bolada o'ziga ishonchni shakllantirish;
- bolaning kishilar bilan muloqotga kirishuvini ta'minlash;
- atrof-muhitga tahlil munosabati bilan qarashni shakllantirish;
- munosabatlardagi ijobiy va salbiy nuqtalar haqida bolaga tushuncha berish va hokazo.
- Shaxsning muloqotga kirishuvchanligi « (V.Karimova) «Muloqotdoshlikni aniqlash» (M.Maxsudova) « metodikalari.
- Ushbu metodikalar orqali shaxsning muloqotga kirishuvchanligi yoki umuman muloqotga kirolmasligini ko'rib chiqamiz. Sinaluvchilarni muloqotga kirishuvchanligini ushbu 3 ta shkala orqali ko'rishimiz mumkin. Ushbu shkalalar shaxsning muloqotdoshlikni aniqlab beradi. Sinaluvchilarimiz soni -30 nafar.

- Natijalar tahlili

Ushbu ikkita metodikaning shkalalari: Past, o'rta, yuqori. Muloqotdoshlikni aniqlash metodikasida past-3 kishi, o'rta-24 kishi, yuqori-3 kishi. Sinaluvchilarimizning ko'pchiligida o'rta natija kelib chiqdi. Muloqotga kirishuvchanlik metodikasida ham shkalalar: past -5 kishi, o'rta-3 kishi, yuqori -22 kishi. Ushbu metodikamizda Sinaluvchilarimizdan 22 kishida yuqori natija kelib chiqdi. Bundan ko'rinib turibdiki, Sinaluvchilarimizda muloqotdoshlik darajasi o'rta darajada. Ishonch darajasi (1.000 > 0.002). Spirman mezoni asosida. (1-jadval.) Ammo muloqotga kirishuvchanlik darajasi esa yuqori darajada shakllangani kelib chiqdi. Ishonch darajasi (1 > 0.01) Pirson mezoni asosida

Xulosa va tavsiyalar: Bilimli, iqtidorli bola nafaqat o'zining, balki xalq, millatning ham kelajagini belgilaydi. Iqtidorli yoshlar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Aytishimiz mumkinki, shaxsning muloqot stilini rivojlantirishda iqtidorning roli muhim jihat hisoblanib, ularni aniqlashda va to'g'ri psixokorreksiya qilishda ota-ona, o'qituvchi va psixologlarning ahamiyati kattadir. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, tanlash va tarbiyalash borasida mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, vatanimiz iqtisodiy salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etish imkonini beradi.

Shunday ekan, iqtidorli bolalar psixologiyasini o'rganish, ularni iqtidoriga mos sohaga yo'naltirish, shaxsiy xususiyatlarini tarbiyalash bugungi kunda psixolog va pedagoglarning oldiga juda katta mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Ta'lim muassasalarida iqtidorli yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, iqtidorli bolalarga e'tibor qaratishimiz lozim. Chunki ular tengdoshlariga namuna va o'z ortidan ergashtira oladigan yoshlar vakili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- 1.M. Maxsudova Muloqot psixologiyasi o'quv qo'llanma Toshkent «Turon-Iqbol»2006.
- 2.E.G'oziyev Umumiy psixologiya darslik.Toshkent -2010.
- 3.Jo'rayeva S.N,Sharafutdinova X.G, Mamarajobova B.A "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanma Toshkent "Innovatsiya-Ziyo"2022.